



THE RELATIONSHIP BETWEEN SPIRITUAL GROWTH AND AN ENLIGHTENED SOCIETY: CONCEPTUAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Bobomurod Shoniyozovich Hamroyev

Termez State Pedagogical Institute, Department of Philosophy

Fundamentals of Spirituality and Legal Education

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Spiritual growth, enlightened society, spirituality, enlightenment, social development, civic consciousness, values, education, culture.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article analyzes the relationship between spiritual growth and an enlightened society from a socio-philosophical point of view. The study reveals the essence of the concepts of spirituality and enlightenment, their role in the development of society, and their mutual influence. The author substantiates that spiritual growth is a factor in the internal development of society, and an enlightened society is a practical expression of this process. The article also highlights the importance of the harmony of these two concepts in social stability, the formation of civic consciousness, and innovative development. The results of the study show that ensuring the harmony of spirituality and enlightenment is an important condition for the development of society.

MA'NAVIY YUKSALISH VA MA'RIFATLI JAMIYAT O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: KONSEPTUAL VA IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Bobomurod Shoniyozovich Hamroyev

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida o'qituvchisi

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ma'naviy yuksalish, ma'rifatli jamiyat, ma'naviyat, ma'rifat, jamiyat taraqqiyoti, fuqarolik ongi, qadriyatlar, ta'lim, madaniyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy yuksalish va ma'rifatli jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot

davomida ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarining mohiyati, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda o'zaro ta'siri ochib berilgan. Muallif ma'naviy yuksalishning jamiyatning ichki rivojlanish omili ekanligini, ma'rifatli jamiyat esa ushbu jarayonning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lishini asoslaydi. Shuningdek, maqolada ushbu ikki tushuncha uyg'unligining ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik ongining shakllanishi va innovatsion rivojlanishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligini ta'minlash jamiyat taraqqiyotining muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ДУХОВНЫМ РОСТОМ И ПРОСВЕЩЕННЫМ ОБЩЕСТВОМ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Бобомурод Шонийзович Хамроев

Термезский государственный педагогический институт, кафедра философии

Основы духовности и правового образования

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: духовный рост, просвещенное общество, духовность, просвещение, социальное развитие, гражданское сознание, ценности, образование, культура.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь между духовным ростом и просвещенным обществом с социально-философской точки зрения. Исследование раскрывает сущность понятий духовности и просвещения, их роль в развитии общества и взаимное влияние. Автор обосновывает, что духовный рост является фактором внутреннего развития общества, а просвещенное общество — практическим выражением этого процесса. В статье также подчеркивается важность гармонии этих двух понятий для социальной стабильности, формирования гражданского сознания и инновационного развития. Результаты исследования показывают, что обеспечение гармонии духовности и просвещения является важным условием развития общества.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki uning ma'naviy salohiyati va ma'rifiy darajasi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonida ma'naviy yuksalish va ma'rifatli jamiyatni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi — ma'naviy yuksalish va ma'rifatli jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilishdir.

Sog'lom, bilimli, madaniyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuchdir. O'z navbatida o'sib kelayotgan avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs etib tarbiyalash esa ta'lim sohasida olib borilayotgan bugungi islohotlarning natijasiga bog'liq. O'zbekistonning bu boradagi pozitsiyasini esa davlatimiz rahbarining quyidagi so'zlari ifodalaydi: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq". Yuqoridagi mulohazaga ko'ra ma'rifatli jamiyat asosida ta'lim va tarbiya muhim o'rinda turadi.

Adabiyotlar tahlili. Ma'naviyat va ma'rifat masalalari Sharq va G'arb mutafakkirlari tomonidan keng o'rganilgan. Sharq falsafasida inson kamoloti, axloqiy poklanish va ilm-ma'rifatga intilish muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa ma'rifatli jamiyat tushunchasi fuqarolik jamiyati, bilimlar iqtisodiyoti va madaniy taraqqiyot bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Jumladan, I.Mirziyotov, Sh.Mirziyatov "Ma'rifat: odob va tarbiyaga oid hikmatlar"[5:132], Minxojiddin Mirzo "Uyg'onish ma'rifati"[4:188], B.M.Rasulov "Oila ma'naviyati"[7:264], O.Muxammadiyeva, M.Sobirova "Sharq va G'arb ma'naviyati"[6:392] va boshqa tadqiqotchilar va olimlar ma'naviyat, ma'rifat, ma'naviy taraqqiyot, ma'naviy yuksalish, ma'rifatli jamiyat haqida qimmatli ma'lumotlar bergan.

Ko'plab olimlar ma'naviy yuksalishni jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining ichki omili sifatida ko'rsatadi, ma'rifatni esa uning tashqi ifodasi va amaliy ko'rinishi deb baholaydi.

Metodologiya. Konseptual tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish.

Natijalar. Ma'naviy yuksalish — bu shaxs va jamiyatning axloqiy, ruhiy va madaniy jihatdan rivojlanish jarayoni bo'lib, u inson qadriyatlarini mustahkamlaydi. Ma'naviy yuksalish bu inson ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganigi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik bu insonning jamiyatda belgilangan tartib-qoidalarga itoat etishi bilan belgilanadi. Ma'naviy yuksalish jarayonida inson nafaqat o'zi balki jamiyat a'zolarini ham shunga

da'vat etadi. Ma'naviy yuksalish jamiyat a'zolari jamiyat taraqqiyoti uchun o'zlarining intellektual salohiyatlarini safarbar etish orqali taraqqiy etadi. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy sizni bizga xitob qilib, "Siz shunday jamiyat barpo etingki, unda aqlu idrok jamiyat yuzini obod qiluvchi, xulqu tarbiya jamiyat ahliga hamjihatlik asosida shodu xurramlik baxsh etuvchi kuchga aylansin", deya fikr bildirgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hozirgi vaqtda diyorumizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'zaro hamjihat yashamoqda, 16 konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutloqo yo'l qo'yilmaydi"[1:9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy sohani izchil rivojlantirishning institutsional asoslarini yaratishda muhim normativ-huquqiy hujjatlar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur hujjatlar Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish jarayonida yuksak ma'naviyatni ustuvor omil sifatida qaror toptirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ushbu qarorlar orqali ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini kompleks rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlar, moliyaviy resurslar va institutsional yondashuvlar aniq belgilab berildi. Natijada, mazkur sohada yagona, uzluksiz va o'zaro uyg'unlashgan tizimni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratildi, bu esa jamiyatning ma'naviy yuksalishini ta'minlashda muhim tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy yuksalish jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va ushbu sohani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan: "Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak"[2], degan fikrlar mazkur sohaning strategik ahamiyatini ochib beradi.

Ushbu yondashuvga ko'ra, ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki davlat va jamiyat rivojining uzluksizligini kafolatlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy sohaning yetarli darajada rivojlanmaganligi jamiyatda

turli salbiy holatlar, jumladan jinoyatchilik, korrupsiya va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ma'naviy yuksalish, ma'naviy taraqqiyot bevosita ma'rifatli jamiyat asosida qaror topadi. Shu o'rinda ma'rifatli jamiyat haqida ham to'xtalib o'tamiz. Ma'rifatli jamiyat — bu bilim, tafakkur va ongli faoliyat ustuvor bo'lgan ijtimoiy tizim hisoblanadi.

Ma'rifatli jamiyatning obyektiv reallik sifatida paydo bo'lishi, o'z navbatida tarixiy makon va zamonda mavjud bo'lgan odamlarning onglik darajasiga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ma'rifatli jamiyat oldiniga g'oya sifatida progressiv fikrlaydigan kishilar tomonidan bayon qilinadi, so'ngra uni amalga oshirishning konseptual asoslari ishlab chiqiladi, so'ngra shu asosda uning mexanizmlari yaratilib harakatga keltiriladi. Bu masala bir kunda, bir yilda emas, balkim uzoq vaqt davomida obyektiv va subyektiv omillarning faol ishtiroki asosida amalga oshiriladi[3:38].

Ma'rifatli jamiyat haqida ajdodlarimiz ma'naviy merosida ham qimmatli ma'lumotlar uchratishimiz mumkin. Jumladan, "Avesto" ma'rifatchiligida ilgari surilgan g'oyalar: 1) chorvachilikni rivojlantirish uchun birinchi navbatda cho'ponlarni tayyorlash va ularga yaxshi yashashlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish; 2) hayvonlar zoti tozaligini saqlash, ularni urchitish, sog'ligini saqlash uchun oqilona ish yuritish; 3) dehqonchilikni rivojlantirishda yerga mexanik qurilmalar yordamida ishlov berish, yerning meliorativ holatini, pokizaligini saqlash; 4) yangi kanallar qazish, ariqzovurlarni tozalash, yerlarni o'z vaqtida ekin ekishga tayyorlash kabilar kiradi. Masalan, "Avesto"da: "O'zoq vaqt ishlov bermay va ekin ekilmay qolgan yer eng baxtsiz zamindir. U ersiz va bolasiz yurgan qari qizga o'xshaydi. Qari qiz erga tegishini xohlagani singari, haydalmagan yer qo'shchini kutadi[9:34]", - degan bir qator ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fikrlar bildirilgan.

Avestoda qayd etilgan ko'plab g'oya va qarashlar O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishga asos bo'ladigan konseptual g'oya bo'lib xizmat qiladi.

O'rta asr Sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabilar ham ma'rifat, ma'rifatli jamiyat va ularning asoslari haqida ko'plab fikr-mulohazalar bildirib o'tganlar. Xususan, Farobiyning fikricha, ma'rifatni, eng avvalo, fozillar shahrining hokimi amalga oshirmog'i kerak. Buning uchun esa: "Hokim Allohdan boshqa hech kimga bo'ysunmasligi kerak. U tabiatan to'rt muchali sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zosidagi nuqson halal bermasligi zarur, aksincha, u sog'salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim"[8:244]. Bu esa o'rta asarlarda jamiyatni nazorat qilish, uni boshqarishda hukmdorning boshqaruvi adolatga tayansa jamiyat yuksalish

bo'lishiga ishonishgan. Ma'rifatparvarlik haqida jadid ma'rifatparvarlari ham ko'plab fikr bildirgan.

Shunday qilib ma'rifatning asl mohiyatini M.Behbudiyning quyidagi: "Ilm-ma'rifatsiz hech bir millat ...hayot maydonida tura olmas. Xoh ul millat hokim, xoh millat mahkum bo'lsin, ilm ma'rifatdan mahrum bo'lganligi uchun boshqa san'at va hunar toji bo'lgan millatlarning oyog'i ostida ezilurga majburdirlar... Boy bo'lgan millat albatta dunyoda yashay oladur. Ul millatning diniga emas, hatto milliyatiga va shaxsiyatiga hech kim tega olmaydir... Hunarlik va boy bo'lmoq uchun nima lozimdir? Albatta, ilm va ma'rifat lozimdir... Hunarli va ma'rifatli bo'lgan millatlarning xalqlari faqir va bechora bo'lib, darvishlar qiyofasiga kirib, gadoylik qilib yurmaydilar"[10:342],– degan so'zlaridan anglab olish mumkin.

Ma'naviy yuksalish va ma'rifatli jamiyat tushunchalarini o'zaro bir-birini taqazo etadigan tushunchalar sifatida baholashimiz lozim. Chunki Ma'naviy yuksalish ma'rifatli jamiyatda yuz berishi yoki ma'rifatli jamiyat ma'naviy yuksalish jarayoni bilan bog'liq holda yuzaga chiqishi mumkin. Demak, bu ikki tushuncha ijtimoiy-falsafiy o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud:

- ma'naviy yuksalish ma'rifatli jamiyat uchun asos yaratadi;
- ma'rifat esa ma'naviyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Qachonki, jamiyatda ma'naviy inqiroz kuzatilsa, ma'rifat darajasi ham pasayadi va aksincha ma'rifat tanazulli jamiyat ma'naviy jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda, ma'naviy yuksalish va ma'rifatli jamiyat bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar sifatida talqin qilinadi. Ushbu kategoriyalar uyg'unligi jamiyatda ijobiy omillar olib kelishi mumkin. Xususan:

- fuqarolik ongining shakllanishi;
- ijtimoiy adolat va barqarorlikning mustahkamlanishi;
- innovatsion rivojlanish uchun zarur muhitning yaratilishi kabilardan iborat.

Shuningdek, ta'lim tizimi, madaniyat va oilaning bu jarayondagi roli muhim. Ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy va ma'rifiy ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ma'naviy yuksalish va ma'rifatli jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Ularning uyg'unligi barqaror, adolatli va taraqqiy etgan jamiyatni barpo etish imkonini beradi. Shu bois, davlat siyosatida ham, ijtimoiy hayotda ham ushbu ikki tushunchani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim deb fikr bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston.2017. –B:32

2. Mirziyoyev Sh. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr.
3. Achilova N. Genesis, evolution and methodological significance of philosophical ideas on the formation of an enlightened society in the new Uzbekistan. –B:36-43.
4. Авесто.Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ,2001. – Б:125.
5. Абу Наср Фиробий. Фозил одамлар шаҳри – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – Б:244.
6. Mirziyotov I, Mirziyato Sh. Ma'rifat:odob va tarbiyaga oid hikmatlar. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Т.: 2021.–Б:132.
7. Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдли. Ж. 1. – Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б:452.
8. Minhojjidin Mirzo.Uyg'onish ma'rifati. Ma'naviyat. Т.: 2022.–Б:188.
9. Rasulov B. Oila ma'naviyati. Andijon.2023.–Б:264
10. Muxammadiyeva O, Sobirova M. Sharq va G'arb ma'naviyati.Bookmany print.Т.:2022.–Б:392.